

**Raqamli texnologiyalar vazirligida 2025-yil uchun
korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko'rsatishi to'g'risida
UMUMIY HISOBOT**

Korxona nomi:			Raqamli texnologiyalar vazirligi				
Hisobotni tayyorlagan xodim			Xaydarov Anvar Rustamovich-Korrupsiyaga qarshi Kurashish bo'yicha bosh mutaxassis				
Hisobot davri:			2025-yil yakuni				
Hisobot tayyorlangan sana:			07.01.2026-yil				
T/r	Tadbirlar guruhining nomlari	Tadbirlarning nomlari	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar	Ijro to'g'risida belgi	Ijro etilmagan bo'lsa, ijro etilishi kutilayotgan muddat	Bajarilganlikni tasdiqlash, bajarilmagan bo'lsa sabablari
1.	Ichki hujjatlar	ichki hujjatlarni ishlab chiqish.	07.01.2025-y.	A.Xaydarov	25.12.2025-yilda bajarilgan		Vazirning 2025-yil 25-dekabrda 3/268-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

T/r	Tadbir	Natijalar
II. Siyosatlar va protseduralar		
1.	Xavf-xatarli vazifa va tartib-taomillar kesimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirishga oid yangi korrupsiyaga qarshi tartib-taomillar va choralar hamda korrupsiyaga qarshi masalalarni tartibga soluvchi ichki hujjatlarni ishlab chiqish.	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga kiritilgan sohalarni tartibga soluvchi quyidagi ichki hujjatlarni (siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo'riqnomalar va sh.k.) ishlab chiqilgan va tasdiqlangan: Raqamli texnologiyalar vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha SIYOSATI; Raqamli texnologiyalar vazirligi faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash USLUBIYATI; Raqamli texnologiyalar vazirligida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha NIZOM; Raqamli texnologiyalar vazirligida aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va ko'rib chiqish REGLAMENTI; Raqamli texnologiyalar vazirligi xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha YO'RIQNOMA; Raqamli texnologiyalar vazirligida kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnoma; Raqamli texnologiyalar vazirligiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha YO'RIQNOMA; Raqamli texnologiyalar vazirligida korrupsiyaga qarshi tartib-taomillar samaradorligini monitoring va nazorat qilish USLUBIYATI; Raqamli texnologiyalar vazirligida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha NIZOM; Xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha REGLAMENT; Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-

		taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi NIZOM; Raqamli texnologiyalar vazirligi tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash holatlari haqida xabar berish, ularni ro'yxatga olish, ko'rib chiqish hamda ularga qarshi kurashishdagi xodimlarning faol ishtiroki uchun rag'batlantirish to'g'risidagi TARTIB; Raqamli texnologiyalar vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bosh mutaxassisining lavozim YO'RIQNOMASI; Raqamli texnologiyalar vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bosh mutaxassisi lavozimining malaka TALABLARI; Raqamli texnologiyalar vazirligi va uning tizimidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarda monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish va uning ishlash tartibi to'g'risida NIZOM; Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda tizim tashkilotlari tomonidan kontragentlar bilan tuziladigan shartnomalarga kiritish uchun korrupsiyaga qarshi qoidalarining mazmuni bo'yicha asosiy SHARTLAR.
II. Shaxsiy namuna		
2.	Vazirning ichki tadbirlardagi chiqishlari (nutqi).	Raqamli texnologiyalar vaziri Sh.X.Shermatov va vazir o'rinbosari R.Karimjonovlarning chiqishlari vazirlik rasmiy saytiga joylashtirilgan (https://gov.uz/digital/activity_page/anti_corruption/).
III. Xavf-xatarlarni baholash		
3.	Vazirlikda korrupsiyaviy xavf-xatarlar bo'yicha baholash o'tkazish.	Joriy yil mart-may oylarida Raqamli texnologiyalar vazirligi faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlar baholandi va 2025-yil 5-mayda tasdiqlandi.
4.	Hisobot davri uchun vazirlikda ish jarayonda yangi aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va ularning darajalari (yuqori, o'rta, past).	Raqamli texnologiyalar vazirligining barcha 68 ta funksiyasi to'liq baholashdan o'tkazilgan. 2025-yil aprel-may oylarida "E-antikor.uz" elektron platformasi orqali vazirlikning barcha vazifa va funksiyalaridagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar baholashdan o'tkazildi va kelishish uchun Agentlikka yuborilgan. Baholash jarayonida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning toifalar bo'yicha nisbati 16 ta funksiyasi yuqori, 31 ta funksiyalar o'rta va 21 ta funksiyalar past darajadagi toifalarga egaligi aniqlangan. Aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni boshqarish bo'yicha vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi ishlab chiqilib amaliyotga joriy qilindi.
5.	Hisobot davrida aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tartibga solish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar	Aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish Dasturi ishlab chiqilib, 2025-yil 5-may kuni amaliyotga joriy qilindi.
6.	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar soni	0
7.	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar o'rta va	0

	undan past darajagacha kamaytirilgan aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar soni	
IV. Korrupsiyaga qarshi amalga oshiriladigan tartib-taomillar		
8.	Vazirlikda aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlari va qabul qilingan choralari.	Vazirlikda manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlanmagan.
9.	Xodimlar tomonidan har yili manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilish.	Vazirlik markaziy apparatining barcha xodimlari manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilganlar.
10.	Ishga olingan xodimlar va nomzodlar ustidan o'tkazilgan tekshiruvlar soni.	Ishga qabul qilishda nomzodlarni tekshirish: Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnomaga muvofiq barcha 212 nafar nomzodlar to'liq o'rganib chiqilgan. Hisobot davrida vazirlik markaziy apparatiga jami 29 nafar xodim ishga qabul qilingan. Shuningdek, 3 nafar xodim boshqa lavozimlarga rotatsiya qilingan.
11.	Hisobot davrida o'tkazilgan kontragentlar tekshiruvlari soni	Hisobot davrida vazirlik faoliyatiga oid ta'minotchi va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan jami 95 ta shartnomalar tuzilgan bo'lib, shundan 33 tasi to'g'ridan-to'g'ri, 62 tasi elektron do'kondan xo'jalik shartnomalari tuzilgan. Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tuzilmasi tomonidan xo'jalik shartnomalarini o'rganishlar davomida manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlanmagan. Xususan, vazirlikda kontragent tomonidan korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilishi sababli shartnomalarni bekor qilish holatlari sodir etilmagan.
12.	Amalga oshiriladigan boshqa korrupsiyaga qarshi tartib-taomillar	Vazirlik normativ-huquqiy hujjatlari yuridik ta'minlash bo'limi xulosasi asosida qabul qilinishi monitoring qilingan.
V. Ta'lim va kommunikatsiya		
13.	Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha treninglar o'tkazish: barcha xodimlar uchun; korrupsiyaviy tavakkallchilikka eng ko'proq moyillik ehtimoli bo'lgan vazifalarni bajaruvchi bo'linmalar uchun.	Hisobot davrida yo'nalish bo'yicha 7 marotaba profilaktik tadbirlar o'tkazilgan. Hisobot davrida vazirlik markaziy apparati xodimlari Korrupsiyaga qarshi kurashish, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar mazmun mohiyati bilan tanishtirish, ularning bilim va malakalarini oshirish maqsadida 3 ta o'quv seminar o'tkazilgan. Tadbirda 241 nafar xodimlar ishtirok etgan. Shuningdek, vazirlikning 35 nafar rahbar xodimlari "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi" yo'nalishida (ISO 37001/2016 ISO 9001/2015) maxsus o'qitishda o'qitilgan. Vazirlikka yangi ishga kirgan 15 nafar xodimlar Bosh prokuratura huzuridagi huquqni muhofaza qilish akademiyasida maxsus o'quq kursiga jalb qilindi va sertifikatlariga ega bo'lgan.
14.	Vazirlikga yaqinda ishga olingan xodimlar uchun treninglar o'tkazish.	Ishga olingan 15 nafar xodimlar uchun treninglar o'tkazilgan.
15.	Xodimlarning korrupsiyaga qarshi qonunchilik talablari va bo'limda amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi choralardan xabardorligini oshirishga oid boshqa tadbirlar.	Vazirlik barcha xodimlari vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki idoraviy xujjatlari bilan to'liq tanishtirilgan.

16.	Korrupsiyaga qarshi kurash uchun mas'ullar tomonidan bajarilgan korrupsiyaga qarshi kurash me'yorlari mavzusida axborot-tarqatma materiallari.	Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga amal qilish zaruriyati to'g'risidagi, shu jumladan, ularning to'g'ri talqin qilinishi va ularga to'g'ri amal qilish to'g'risidagi xabarnoma va boshqa tarqatma materiallar vazirlik saytiga joylashtirilgan (https://gov.uz/digital/activity_page/anti_corruption/).
17.	Xodimlarning ahloq-odob madaniyatini shakllantirish, ularni korrupsiyaga qarshi kurash tizimi va korrupsiyaga qarshi qonunchilikning talablari xaqida xabardor qilishning boshqa usullari.	Bu materiallar ishchi kompyuterlarga joylashtirildi.
18.	Fuqarolik jamiyati va vazirlik kontragentlari uchun korrupsiyaga qarshi tadbirlarni o'tkazish.	Shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar kiritilgan.
VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakalar va qoidabuzarliklar to'g'risidagi xabarlar. Ta'sir choralari		
19.	Xatti-xarakatlar, shu jumladan, potensial xatti-xarakatlar uchun aloqa kanallariga kelib tushgan xabarlar soni	Xabarlar kelib tushmagan.
20.	Xizmat tekshiruvi o'tkazilgan; Korrupsiyaga qarshi qonunchilik buzilganligi to'g'risida tasdiqlangan holatlar (shu jumladan, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va maqolalar kesimida) aniqlangan; Bo'linmada belgilangan korrupsiyaga qarshi nazorat va tartib-taomillarning buzilish holatlari aniqlangan (shu jumladan, ichki hujjatlar kesimida); Aybdorlar aniqlangan holatlar soni.	Xizmat tekshiruvlari o'tkazilgan. 6 ta xizmat tekshiruvlari o'tkazilgan. 1ta Tashkilotning manfaatini himoya qilish. Korrupsiyaga qarshi nazorat va tartib-taomillarning buzilish holatlari aniqlanmagan. Aybdorlar aniqlangan holatlar yo'q.
21.	Qabul qilingan ta'sir choralari.	Xabarlar kelib tushmagani sababli ta'sir choralari qabul qilinmagan.
VII. Monitoring va nazorat		
22.	Monitoring va nazorat ishlari	Vazirlik normativ-huquqiy hujjatlari yuridik ta'minlash bo'limi xulosasi asosida qabul qilinishi monitoring qilingan. "E-antikor.uz" elektron platformasining 1.2.4.2. bandida (<i>Monitoring va nazorat</i>)da to'liq ma'lumotlar ilova qilinadi.
23.	Vazirlikda belgilangan nazorat tadbirlari va tartib-taomillar buzilish holatlari aniqlanganmi va ularga nisbatan qo'llanilgan ta'sir choralari?	Vazirlikda belgilangan nazorat tadbirlari va tartib-taomillar buzilish holatlari aniqlangan.